

MAKTABGACHA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA TARBIYACHINING KASBIY KOMPETENSIYASI

Yo'ldoshova Mehriniso Ochildiyovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute

Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchisi

Mo'minova Sevinch Akbar qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

Annatatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim sifatini oshirishda tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi hal qiluvchi omil sifatida tahlil etilgan. Tadqiqotda tarbiyachining pedagogik mahorati, kommunikativ ko'nikmalari, innovatsion faoliyatga tayyorgarligi hamda kasbiy refleksiya darajasining bolalar rivojlanishiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati, tarbiyachilarning kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi sharoitlar va ularni baholash mezonlari ko'rib chiqilgan. Maqolada ilg'or xorijiy tajribalar va milliy ta'lim tizimidagi islohotlar asosida tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish yo'llari bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim muassasalarida sifatli ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, kasbiy kompetensiya, pedagogik mahorat, ta'lim sifati, innovatsion yondashuv.

Аннотация. В данной статье профессиональная компетентность воспитателя рассматривается как ключевой фактор повышения качества дошкольного образования. В исследовании раскрыты влияние педагогического мастерства, коммуникативных навыков, готовности к инновационной деятельности и уровня профессиональной рефлексии воспитателя на развитие детей. Также анализируется значение компетентностного подхода

в современном образовательном процессе, условия, обеспечивающие профессиональное развитие воспитателей, и критерии оценки их компетентности. В статье представлены предложения и рекомендации по развитию профессиональной компетентности воспитателей на основе передового зарубежного опыта и реформ национальной системы образования. Результаты исследования имеют практическое значение для организации качественного учебно-воспитательного процесса в дошкольных образовательных учреждениях.

Ключевые слова: дошкольное образование, воспитатель, профессиональная компетентность, педагогическое мастерство, качество образования, инновационный подход.

Abstract. This article analyzes the professional competence of preschool educators as a key factor in improving the quality of preschool education. The study highlights the influence of teachers' pedagogical skills, communication abilities, readiness for innovative activity, and level of professional reflection on children's development. The importance of a competency-based approach in modern education, the conditions ensuring teachers' professional growth, and the criteria for assessing their competence are also examined. The article provides recommendations for developing the professional competence of preschool educators based on advanced international experience and national educational reforms. The results of the study have practical significance for organizing a high-quality educational process in preschool institutions.

Keywords: preschool education, educator, professional competence, pedagogical skills, quality of education, innovative approach.

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil

rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik esa mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan bilim, malaka, ko’nikmalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo’llay olinishi tushuniladi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan har bir mustaqil yo’nalish bo’yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o’zlashtirilishini nazarda tutadi. Shu jumladan kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi ahborotlarni o’rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topishni, ularni qayta ishlash va o’z faoliyatida qo’llay bilishni taqazo etadi. Kasbiy kompetentlik zamonaviy ta’lim va mehnat bozorining eng muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda tezkor o’zgaruvchan jamiyat sharoitida faqatgina bilimga ega bo’lish yetarli emas; shu bilimlarni amaliyotda qo’llay olish, noan’anaviy vaziyatlarda to’g’ri qaror qabul qilish va murakkab vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish ham muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, kompetentlikning o’zagi – bu mutaxassisning professional va shaxsiy rivojlanish darajasi, uning yangi ma’lumotlarga ochiqligi va o’z faoliyatini samarali tashkil eta olishidir. Kasbiy kompetentlik mutaxassisni nafaqat o’z sohasi bo’yicha bilimli qilish, balki uning ijodiy fikrlashini, muloqot qilish qobiliyatini, murakkab va ziddiyatli vaziyatlarda to’g’ri harakat qilish malakasini shakllantiradi. Masalan, mutaxassis har qanday kutilmagan vaziyatga duch kelganda, u o’z bilim va ko’nikmalarini moslashtirib, eng samarali yechimni topa olishi kerak. Shu bois, kompetentlik – bu faqatgina tayyor bilimlar majmui emas, balki ularni hayotiy sharoitlarda qo’llay olish qobiliyatidir. Bundan tashqari, kasbiy kompetentlik integrativ xarakterga ega bo’lib, mutaxassisning turli yo’nalishlardagi bilimlarini uyg’unlashtirishni talab qiladi. Bu esa doimiy o’z-o’zini rivojlantirish, yangi ma’lumotlarni izlash, ularni tahlil qilish va faoliyat jarayonida qo’llashni o’z ichiga oladi. Shu tariqa, kompetent mutaxassis nafaqat o’z kasbini mukammal biladi, balki jamiyatdagi ijtimoiy va mehnat talablarini ham chuqur anglaydi, o’z qarorlarini zamon talablari bilan uyg’unlashtira oladi. Tarbiyachilarning ta’lim-tarbiya jarayonida asosiy kasbiy kompetentliklari mavjud, **Kasbiy kompetentlik** –

mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir. **Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olish. **Maxsus kompetentlik**–kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmunni ifodalaydi: **psixologik kompetentlik**–pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish; **metodik kompetentlik**– pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash; **informatsion kompetentlik** – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish; **kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish; **innovatsion kompetentlik**–pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish; **kommunikativ kompetentlik** – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish. **Shaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish. **Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish. Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar,

texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik. MTT tarbiyachilarining pedagogika, psixologiya va maktabgacha ta'lim metodikasi bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotga qo'llashi; MTT tarbiyachilarining maktabgacha ta'lim tashkilotidagi pedagogik-metodik tadbirlarni samarali tashkil etish va boshqara olish imkoniyatlari; nostandart vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilish, tashabbuskorlik, ijodkorlik, ko'nikmalarining rivojlanganligi kabilar.

Xulosa. Maktabgacha ta'lim sifatini oshirish masalasi bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida ustuvor yo'nalishlardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu jarayonda tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi muhim omil sifatida ajralib turadi. Kasbiy kompetensiya tarbiyachining nafaqat pedagogik bilim va ko'nikmalarini, balki pedagogik tafakkur, kreativlik, muloqot madaniyati, psixologik va didaktik tayyorgarligini, shuningdek, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali yondashuvni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim sifatining yuqori darajasi tarbiyachining professional rivojlanishi, doimiy malaka oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bilan bevosita bog'liq. Tarbiyachining kompetensiyasi bolalarning intellektual, emotsional, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishiga, shuningdek, ularning ta'lim olish jarayoniga qiziqish uyg'otish va ijobiy shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatida tarbiyachining kasbiy kompetensiyasini oshirish va doimiy rivojlantirish strategik ahamiyatga ega. Bu esa nafaqat individual pedagogik muvaffaqiyatlarni, balki maktabgacha ta'lim sifatini uzluksiz yaxshilashni ta'minlaydi. Shunday qilib, tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi maktabgacha ta'lim tizimida sifatni oshirishning asosiy tamoyili sifatida qaralishi va rivojlantirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Boymirzayeva S.O. **Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi maktabgacha ta'lim sifatini oshirish omili sifatida.** – T.: Uzresearchers, 2023.

2. Qodirova N.M. **Maktabgacha ta'limda o'quv-tarbiya jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirish.** – T.: Openscience, 2024.
3. Tashxanova S.Q. **Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining kasbiy kompetentligi.** – T.: Interonconf, 2024.
4. Shokirjonova Z.M. **Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilarini umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda asosiy funksiyalar.** – T.: Scientific Journal, 2025.
5. Erimbetova P.R. **Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish.** – T.: Ilmiy Xabarlar, 2024.
6. Aminova G.N. **Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish.** – T.: Econference Series, 2024.
7. Tojimova D. **Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish yo'llari.** – T.: New Article, 2023.
8. Ergasheva B.Z., Abduqayumova M.O. **Bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati.** – T.: Interonconf, 2023.